

**BANK KARTALARIDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ FIRIBGARLIK
JINOYATLARINING KRIMINALISTIK TAVSIFI****Xalniyazov E'zozbek Muratboy o'g'li**

Toshkent davlat agrar universiteti

“Huquqshunoslik” kafedrası assistant.

tel: (+99891) 301 50 56 ezozbekxalniyazov5056@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.18443276>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi keng yoritilgan. Unda mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilish usullari, jinoyatchilar tomonidan qo'llaniladigan texnik va psixologik ta'sir vositalari, firibgarlikning asosiy shakllari hamda ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, bank kartalari orqali sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlarining izlari, jinoyat sodir etuvchi shaxslarning tipik belgilarini aniqlash, jabrlanuvchilarning xatti-harakatlari hamda ushbu jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan omillar ko'rib chiqiladi. Maqolada amaldagi qonunchilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyoti hamda statistik ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarilib, mazkur jinoyatlarning oldini olishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: bank kartalari, firibgarlik jinoyatlari, kriminalistik tavsif, kiberjinoyatchilik, plastik karta firibgarligi, jinoyat sodir etish usullari, kriminalistik izlar, tergov amaliyoti, axborot texnologiyalari, jinoyatlarning oldini olish.

Abstract. This article provides a comprehensive description of the criminalistic description of fraud crimes related to the use of bank cards. It analyzes the methods of committing this type of crime, the technical and psychological means of influence used by criminals, the main forms of fraud, and their inextricable link with modern information and communication technologies. It also examines the traces of fraud crimes committed through bank cards, the identification of typical signs of perpetrators, the actions of victims, and factors of forensic importance in exposing and investigating these crimes. The article draws conclusions based on current legislation, the practice of law enforcement agencies, and statistical data, and provides suggestions and recommendations for the prevention of these crimes.

Keywords: bank cards, fraud crimes, criminalistic description, cybercrime, plastic card fraud, methods of committing crimes, forensic traces, investigative practice, information technologies, crime prevention.

Аннотация. В данной статье представлено всестороннее описание криминалистического характера мошеннических преступлений, связанных с использованием банковских карт. Анализируются методы совершения этого вида преступлений, технические и психологические средства воздействия, используемые преступниками, основные формы мошенничества и их неразрывная связь с современными информационно-коммуникационными технологиями. Также рассматриваются следы мошеннических преступлений, совершенных с использованием банковских карт, идентификация типичных признаков преступников, действия жертв и факторы, имеющие важное значение для раскрытия и расследования этих преступлений. На основе действующего законодательства, практики правоохранительных органов и статистических данных делаются выводы, а также предлагаются рекомендации по предотвращению подобных преступлений.

Ключевые слова: банковские карты, мошеннические преступления, криминалистическое описание, киберпреступность, мошенничество с пластиковыми картами, методы совершения преступлений, криминалистические следы, следственная практика, информационные технологии, предотвращение преступлений.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan operatsiyalarning katta qismi bank kartalari orqali bajarilmoqda. Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bank kartalaridan foydalanish qulayligi, tezkorligi hamda xavfsizligi bilan ajralib turgan bo'lsa-da, ushbu jarayon bilan bog'liq jinoyatlarning, xususan, firibgarlik holatlarining ko'payishi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, bank kartalaridan noqonuniy foydalanish orqali sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatlari jamiyatning iqtisodiy xavfsizligiga, fuqarolarning mulkiy huquqlariga hamda bank tizimiga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazmoqda.

So'nggi yillarda bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlari shakl va usullarining murakkablashib borayotgani, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan chambarchas bog'lanib borishi ushbu jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish jarayonida yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Jinoyatchilar tomonidan fishing, vishing, skimming, ijtimoiy muhandislik kabi zamonaviy firibgarlik usullaridan foydalanilayotgani mazkur jinoyatlarning kriminalistik jihatdan chuqur o'rganilishini taqozo etadi.

Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini samarali fosh etish va oldini olish, avvalo, ularning kriminalistik tavsifini to'g'ri shakllantirishga bog'liqdir. Kriminalistik tavsif jinoyatning tipik belgilarini, sodir etilish mexanizmini, jinoyatchi shaxsining xususiyatlarini, jinoyat izlarini hamda jabrlanuvchi shaxsning xatti-harakatlarini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur turdagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifini ishlab chiqish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur maqolada bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning sodir etilish usullari, jinoyat izlari, jinoyatchi va jabrlanuvchining tipik xususiyatlari hamda tergov jarayonida yuzaga keladigan muammolar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritib beriladi. Shuningdek, ushbu jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Asosiy qism

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar kundan kunga taraqqiy etib, oddiygina bank plastik kartasi orqali oylik maosh, pensiya va nafaqalarni olish, kredit olish va to'lash, kamunal to'lovlarni amalga oshirish, soliq va boshqa turli xil to'lovlarni hech qanday qiyinchiliklarsiz amalga oshirish mumkin. Mamlakatdagi raqamlashtirish jarayonlari hamda onlayn xizmatlar bozoridagi talab va taklifni ortib borishi bank kartalarini qulay to'lov tizimiga aylanishiga olib keldi. Natijada, naqt to'lovlarsiz moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish kundalik ehtiyojlarni qondirishning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ayni damda bu to'lov tizimlari insonlar nigohida qanchalar mukammal va universal bo'lib tuyulsada, afsuski hozircha bu tizimni ham nuqson va kamchiliklardan to'la xoli va xavsiz deb bo'lmaydi. Global axborot almashinuvi asrida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni takomillashtirilishi axborot xavfsizligi bilan bog'liq turli muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Bunga asosiy sabab sohada kiberjinoyatchilikning avj olishi hamda unga qarshi kurashning uslubiy ta'minotlarini ishlab chiqilmaganligi bilan bog'lash mumkin. Jinoiy maqsadni amalga oshirishda kompyuter texnikasidan asosiy vosita yoki quroli sifatida foydalanish kundan-kunga ommalashib bormoqda. Kompyuter texnikasini mehnat munosabatlarining asosiy vositasiga aylanishi va ma'lumotlar bazalari bilan samarali ishlash imkonini berishi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish sohasida inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Xususan, bugun iqtisodiyot sohasida moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning turli shakllarini joriy etilishi bu borada bank plastik kartlari bilan bog'liq kiberjinoyatlarni o'sishi uchun ham zamin yaratmoqda. Mulk huquqining daxlsizligi konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlangan bo'lib, unga har qanday tahdid, avvalo, konstitutsiyaviy normaning buzilishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan qarganda, bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyati o'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq boshqa jinoyatlardan ijtimoiy xavfi yuqoriligi bilan farq qiladi.

2022 yil 28 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni (keyingi o'rinlarda Farmon deb yuritiladi) bilan tergov faoliyatini nazorat qilish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan yangi turdagi jinoyatlar, shu jumladan kiberjinoyatlarni fosh etish bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini isloh qilish, qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilish hamda ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish jarayonlarida fuqarolarning qadrdimmati va erkinligini himoya qilishning samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qator vazifalar belgilandi¹

Farmonga binoan «2023–2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik strategiyasi»ni ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Bunda, kiberjinoyatchilik uchun jinoiy javobgarlikni qayta ko'rib chiqish, axborot maydonidagi kiberhujum va tahdidlarni monitoring qilish tizimini yanada takomillashtirish, xususan, kiberxavfsizlikning yagona tarmog'ining texnik infratuzilmasini kengaytirish vazifalari belgilab olindi. Firibgarlar tomonidan bank kartalaridan pul yechib olishning yangidan-yangi usul va vositalarini qo'llashi jinoyat mexanizmlarini murakkablashuviga olib kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda firibgarlik so'nggi 4 yilda 4 baravarga, ya'ni 2018 yilda 6 483 ta, 2019 yilda 6 321 ta, 2020 yilda 10 496 ta, 2021 yilda 24 554 taga, kiberfiribgarlik esa so'nggi 3 yilda 8,3 baravarga ko'payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foiziga yetgan².

"Kompyuter firibgarligi" (computer fraud) atamasi, o'tgan asrning 70-yillarida paydo bo'lgan 3bulib, hozirgi kunga qadar olimlar tomonidan bir qancha bahs munozalarga sabab bo'lmoqda. Xususan, D.A Zakirova kompyuter firibgarligi bu "kompyuter texnikasi yordamida aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish" degan tushunchani ilgari suradi 4 . M.A. Yefremova esa, kiberfiribgarlik va kompyuter firibgarligi bir xil tushuncha, ya'ni sinonimlar deb hisoblaydi 5 .

Professor N.Lopashenko, kompyuter firibgarligini naqd bo'lmagan pul mablag'larini va nodokumentar qimmatli qog'ozlarni qo'lga kiritish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik deb tariflaydi⁶.

¹ 2022 йил 28 январдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60-сон Фармони.

² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>

³ Комаров А.А. Криминологические аспекты мошенничества в глобальной сети Интернет. Дисс. на соис. уч. степ. канд. юрид. наук. – Пятигорск, 2010. – С. 24

Bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyati fosh etilishi juda qiyin bo'lgan jinoyatlardan biri bo'lib, puxta rejalashtirilganligi, o'ta murakkabligi hamda transchegaraviy xususiyatga egaligi bilan boshqa turdagi jinoyatlardan farq qiladi. Ushbu jinoyat tushunchasi ba'zi kriminalistik adabiyotlarda onlayn firibgarlik, kiberfiribgarlik deb keltirilgan bo'lsa, ba'zilarida esa kompyuter firibgarligi deb keltiriladi. Qonunchiligimizda onlayn firibgarlik, kiberfiribgarlik, bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyati tushunchalari hali to'liq va batafsil yoritilmagan. Hozirda bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatini sodir etish holati va usuliga qarab, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi "g" bandiga asosan kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilganda ushbu norma bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlari — bu shaxslarning bank kartalari, ularning rekvizitlari yoki elektron to'lov vositalaridan noqonuniy ravishda foydalanish orqali o'zganing mulkini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qo'lga kiritishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan jinoyatlardir. Ushbu turdagi jinoyatlar an'anaviy firibgarlikdan farqli o'laroq, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ko'pincha masofadan turib amalga oshiriladi.

Mazkur jinoyatlarning kriminalistik tavsifi ularning sodir etilish mexanizmi, jinoyat quroli va vositalari, jinoyat izlari, jinoyatchi shaxsi hamda jabrlanuvchi shaxsining tipik xususiyatlarini aniqlash orqali shakllantiriladi. Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarining o'ziga xos jihati shundaki, ular nafaqat moddiy muhitda, balki virtual makonda ham iz qoldiradi.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, bank kartalari orqali sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlari turli xil usullar orqali amalga oshiriladi. Eng ko'p uchraydigan usullarga quyidagilar kiradi:

Fishing (phishing) — jabrlanuvchini aldov yo'li bilan soxta internet saytlar, elektron pochta yoki messengerlar orqali bank karta ma'lumotlarini kiritishga majbur qilish;

Vishing — telefon qo'ng'iroqlari orqali bank xodimi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ vakili sifatida tanishtirib, karta rekvizitlarini qo'lga kiritish;

Skimming — bankomat yoki to'lov terminallariga maxsus qurilmalar o'rnatish orqali karta ma'lumotlarini yashirincha nusxalash;

Ijtimoiy muhandislik — jabrlanuvchining psixologik holatidan foydalanib, uni shoshilinch qaror qabul qilishga undash;

Onlayn savdo orqali firibgarlik — soxta e'lonlar yoki internet-do'konlar orqali to'lovlarni noqonuniy yo'l bilan qabul qilish.

Mazkur usullar jinoyatchilarning texnik bilimlari va psixologik tayyorgarligi yuqori ekanligini ko'rsatadi hamda ularni aniqlash va fosh etishda kompleks kriminalistik choralarni talab qiladi.

Bank kartalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarida an'anaviy moddiy izlar bilan bir qatorda raqamli izlar muhim ahamiyatga ega. Moddiy izlarga bankomatlarda yoki terminallarda qolgan video yozuvlar, soxta qurilmalar, hujjatlar kirsas, raqamli izlarga IP-manzillar, tranzaksiya loglari, elektron pochta yozishmalari, SMS-xabarlar va mobil ilovalar faoliyati haqidagi ma'lumotlar kiradi.

Kriminalistik nuqtai nazardan, ushbu izlarni o'z vaqtida aniqlash, mustahkamlash va tahlil qilish jinoyatni fosh etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, bank muassasalari bilan hamkorlik qilish, axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlarni protsessual jihatdan to'g'ri rasmiylashtirish muhim hisoblanadi.

Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar, odatda, axborot texnologiyalaridan yaxshi xabardor, kommunikativ ko'nikmalarga ega va yashirin faoliyat yuritishga moyil bo'ladi. Ko'plab hollarda jinoyatlar uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilib, har bir a'zoning aniq vazifalari belgilanadi.

Jabrlanuvchilar esa ko'pincha bank xizmatlaridan faol foydalanuvchi, lekin moliyaviy xavfsizlik qoidalariga yetarlicha rioya qilmaydigan shaxslar bo'lib, firibgarlikning psixologik ta'siriga tez beriluvchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu holat jinoyatlarning oldini olishda aholining huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishda kriminalistik tavsif tergovchi uchun dastlabki versiyalarni ilgari surish, dalillarni yig'ish va tekshirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Tergov jarayonida jinoyat sodir etilgan vaqt, joy, usul, qo'llanilgan texnik vositalar va moliyaviy tranzaksiyalar ketma-ketligi aniqlanadi.

Shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlari, sud-texnik va kompyuter-texnik ekspertizalar, bank va aloqa operatorlari bilan hamkorlik mazkur jinoyatlarni fosh etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kriminalistik tavsif asosida ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar tergov samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlari zamonaviy axborot texnologiyalari rivoji bilan birga murakkablashib borayotgan, jamiyat uchun yuqori xavflilik darajasiga ega bo'lgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Ushbu jinoyatlarning kriminalistik tavsifini chuqur o'rganish ularning sodir etilish usullarini aniqlash, jinoyatchilarni fosh etish hamda samarali tergov harakatlarini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mazkur jinoyatlarning oldini olishda bank tizimi xavfsizligini mustahkamlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish hamda aholining moliyaviy-huquqiy savodxonligini oshirish zarurligi asoslab berildi.

REFERENCES

1. Комаров А.А. Криминологические аспекты мошенничества в глобальной сети Интернет. Дисс. на соис. уч. степ. канд. юрид. наук. – Пятигорск, 2010. – С. 24.
2. Зыков Д.А. Виктимологические аспекты предупреждения компьютерного мошенничества. Владимир, 2002. – 211 с.
3. Ефремова М.А. Мошенничество с использованием электронной информации // Информационное право. 2013. № 4. С. 19-21.
4. Лопашенко Н.А. Посягательства на собственность: монография. – М.: Норма, Инфра-М, 2012. – С. 8.
5. Жиноятларни тергов қилишнинг криминалистик методикаси: Ўқув қўлланма / Р.Р. Шакуров, Ш.Т. Джуманов, Н. Тоштемиров, Д.Р. Тураева, О.Д. Алланазаров. – Т: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2013. – 5 б.